AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Saidova Sevara Abdimumin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sevarayus96@mail.ru

ORCID: 0009-0006-2683-9332

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning uslubiy masalalari bayon qilingan bo'lib, unda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish bosqichlari tavsifi, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish muammolari, 300-son "Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish nomli AXSda o'zaro bog'liq tomonlarni ifodalovchi havolalar, 300-son AXS tarkibiy qismlari tavsifi hamda auditni rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirish masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Auditorlik tekshiruvi, auditning xalqaro standartlari, auditni rejalashtirish, audit bosqichlari, auditning umumiy strategiyasi, audit rejasi, auditorlik amallar, auditning xalqaro standartlari, auditni dastlabki rejalashtirish, auditor, auditorlik guruhi.

Abstract. This article describes the methodological issues of planning audit in Uzbekistan, describes the stages of planning audit, issues of planning audit, references to related parties in ISA 300 "Planning audit of financial statements", describes the components of ISA 300, and issues of improving the audit planning process.

Keywords: Audit, international auditing standards, audit planning, audit stages, overall audit strategy, audit plan, audit procedures, international auditing standards, initial audit planning, auditor, audit team.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методологические вопросы планирования аудита в Узбекистане, описываются этапы планирования аудита, вопросы планирования аудита, ссылки на заинтересованные стороны в МСА 300 «Планирование аудита финансовой отчетности», описываются компоненты МСА 300 и вопросы совершенствования процесса планирования аудита.

Ключевые слова: Аудит, международные стандарты аудита, планирование аудита, этапы аудита, общая стратегия аудита, план аудита, аудиторские процедуры, международные стандарты аудита, первоначальное планирование аудита, аудитор, аудиторская группа.

KIRISH

O'zbekistonda audit bozori barqaror rivojlanayotgan so'nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlariga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, auditorlik xizmatiga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga oshib borayapti. Shu bois, O'zbekistonda ushbu faoliyatni rivojlantirish va xalqaro standartlar asosida tashkil etish davr talabiga aylanmoqda.

Respublikamizda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazish uslubiyatini takomillashtirish masalasi hozirgi kunga qadar bir butun, yaxlit ilmiy asar sifatida batafsil tadqiq etilmagan. Auditorlik faoliyatining kengayib borishi va bu sohada fundamental tadqiqotlarning kamligi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazish uslubiyatini takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bosqichlarida bajariladigan auditorlik amal(vazifa)larining mazmuni, ularda bajariladigan vazifalar, qonunosti hujjatlaridagi nomuvofiqliklar va ularni bartaraf etish yo'llari xususida fikr yuritmoqchimiz. Zero, auditorlik tekshiruvining sifatli(qonunchilikda belgilangan muddat va tartib asosida) amalga oshirilishini ta'minlash uchun uni belgilangan ketma-ketlik asosida o'tkazish talab etiladi. Ta'kidlash joizki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan auditorlik tekshiruvini o'tkazish uslubiyatini o'rganishga



keng e'tibor qaratilmagan hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitiga muvofiq o'zgarib borishi mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo'yicha asosan xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular jumlasiga E.A.Arens, Dj.K.Lobbek, A.D.Sheremet va V.P.Suys kabi olimlarni kiritish mumkin. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan esa bu masalalar yaratilgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalarda, shuningdek, e'lon qilingan ilmiy maqola va tezislarda faqat auditorlik rejalashtirishning nazariy jihatlarini o'rganilgan. Masalan, R.D.Do'smuratov, A.A.Karimov, Z.T.Mamatov, B.Q.Hamdamiy, M.M.Tulaxodjaeva, U.Saxobov va I.Qo'zievning asarlarida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishning nazariy asoslarini rivojlantirish muammolari o'rganilgan.

Amerikalik olimlar E.A.Arens va Dj.Lobbeklar esa "auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonini dastlabki rejalashtirish, umumiy ma'lumotlarni to'plash, mijozning huquqiy majburiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash, muhimlik, auditorlik riski, biznes riski va ichki xo'jalik risklarini baholash, ichki xo'jalik nazorat tizimi bilan tanishish, auditning umumiy rejasi va dasturini tuzish"[1] kabi oltita bosqichlarda amalga oshirish zarurligini ta'kidlaganlar.

Bu borada respublikamiz iqtisodchi olimlaridan N.S.Sanaev tomonidan auditni rejalashtirish jarayoni "taxminiy rejalashtirish, umumiy zarur axborotlarni yig'ish, mijozning yuridik majburiyatlari ko'lamiga haqida axborot yig'ish, mijozdagi ichki audit tizimi va uning tavakkalchiligiga baho berish va mijoz biznesi hamda ichki audit sohasidagi tavakkalchilikni baholash" [2] kabi beshta bosqichlarga ajratgan holda, uning ayrim nazariy jihatlarini tadqiq etgan. Yana bir iqtisodchi olim I.Qo'zievning fikricha, "auditni rejalashtirish jarayoni 3 bosqichli, ya'ni, kirish, tayyorgarlik va yakuniy qismlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq"[3] deb ta'kidlagan.

Rossiyalik olimlar A.D.Sheremet va V.P.Suyslar tomonidan esa auditorlik dasturini tayyorlashning nazariy masalalari tadqiq etilgan bo'lib, ularning ta'kidlashicha "audit dasturi audit umumiy rejasining rivojlantirilishi hisoblanadi va audit rejasini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan auditorlik muolajalarining batafsil ro'yxatidan iborat" [4].

Auditni dastlabki rejalashtirish masalalari auditga oid olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodchi I.I.Meliyevning tadqiqotlarida auditni dastlabki rejalashtirish jarayonlari to'g'risidagi tadqiqot natijalarini kuzatish mumkin [5].

Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan esa bu masalalar yaratilgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalarda, shuningdek, e'lon qilingan ilmiy maqola va tezislarda faqat auditorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlarini o'rganilgan. Masalan, R.Do'smuratov, A.Karimov, Z.Mamatov, B.Hamdamiy, M.Tulaxodjaeva, I.Qo'ziev, A.Avloqulov va I.Meliyevning asarlarida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishning nazariy asoslarini rivojlantirish muammolari o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Auditorlik tekshiruvini tashkil etishning bugungi kundagi dolzarb muammolaridan biri bu - amaliyotda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonining ahamiyati va mazmunini auditorlar tomonidan etarlicha tushunmasligi sababli, rejalashtirish amalda standartlar talablariga muvofiq amalga oshirilmayapti yoki ayrim auditorlik tekshiruvlarida ushbu bosqichda tuziladigan auditorlik dasturi va umumiy rejasi tuzilmayapti? Iqtisodchi I.Meliyevning ta'kidlashicha bugungi kunda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish borasida quyidagi amaliy muammolar mavjuddir (1-jadval) [6].

1-jadval. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish muammolari

№	MUAMMONING MAZMUNI
1	Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar va ilmiy tadqiqotlarda auditni rejalashtirish va uning bosqichlari mazmuni, ahamiyati va rejalashtirishga qo'yilgan talablar mazmunining etarlicha ochib berilmaganligi
2	Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda auditorlik tashkilotlari tomonidan 300-sonli "Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish" nomli AXS (keyingi o'rinlarda AXS) talablariga rioya etilmayotganligi yoki rejalashtirish jarayonining sifati etarlicha nazorat qilinmayotganligi

3	Auditorlik tekshiruvini dastlabki rejalashtirish bosqichida bajariladigan vazifalar mazmuni va ularni amalga oshirish tartibini amaldagi auditorlik standartlarida aniq va batafsil bayon etilmaganligi
4	Auditorlik standartlari va ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan auditorlik tekshiruvining audit umumiy strategiyasi va audit rejasi namunaviy shaklining amaliyotda qo'llash imkonining mavjud emasligi
5	Amaldagi 300-sonli "Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish" nomli AXSda rejalashtirish jarayonida tuziladigan hujjatlar namunaviy shaklining umuman keltirilmaganligi va auditorlarni AXS talablari mazmunidan xabardorlik darajasining pastligi
6	Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonini tanqidiy tahlil etgan holda, amaldagi me'yoriy hujjatlar va auditorlik standartlarini etarlicha zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilmayotganligi hamda amalga oshirilayotgan islohotlar talablari darajasida sohaga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmayotganligi

Amaldagi 300-sonli «Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish» nomli auditning xalqaro standartiga ko'ra, tekshiruvni rejalashtirish ikki bosqichda, ya'ni, "audit umumiy strategiyasini ishlab chiqish" va "audit rejasini tayyorlash" nomli bosqichlarda amalga oshirilishi belgilangan. Biroq, fikrimizcha, amaliyotda auditorlar mazkur bosqichga jiddiy e'tibor qaratmasliklari va respublikada xalqaro standartlarning rasmiy mukammal tarjimasi yaratilmaganligi bois ushbu standart talablari etarlicha bajarilmayapti.

Bizningcha, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:


1. Auditorlik tekshiruvni buyurtmachisi faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni to'plash;
2. Auditorlik shartnomasi shartlarini kelishish hamda auditorlik shartnomasini tuzish;
3. Auditorlik umumiy rejasini tayyorlash va tasdiqlash;
4. Auditorlik dasturini tayyorlash va tasdiqlash;

5. Tasdiqlangan auditorlik audit umumiy strategiyasi va audit rejasi bilan tekshiruv buyurtmachisi hamda auditorlik guruhini tanishtirish.

Bizning fikrimizcha, tekshiruvni rejalashtirishning ilk jarayonida auditorlik tashkiloti tekshirilayotgan sub'ekt faoliyati to'g'risidagi quyidagi hujjatlarni ya'ni, korxona ustavi, tekshirilayotgan sub'yektning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlar, korxona hisob siyosati va unga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi buyruq, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ta'sis hujjatlari (ta'sisshilar yig'ilishining bayonnomalari), korxonaning statistik va moliyaviy hisobotlari, tuzilgan shartnoma va bitimlar, ichki audit xizmati bo'limi hisobotlari, tekshiruv buyurtmachisining tarkibiy bo'linma (filial)lari ro'yxati, tekshirilayotgan sub'ekt faoliyatining tashkiliy hujjatlari va tekshiruvda qatnashuvchi auditorlik guruhi a'zolarining tajriba (malaka) darajasini tasdiqlovchi hujjat nusxalarini olishi hamda ularning mazmuni bilan to'liq tanishishi maqsadga muvofiqdir.

Auditorlik rejalashtirishning tavsiya etilgan birinchi va ikkinchi bosqichlari mazmuni to'g'risida yuqorida so'z yuritilganligi bois, biz auditorlik umumiy rejasini tayyorlash va tasdiqlash bosqichi to'g'risida fikr yuritamiz. Bizningcha, auditorlik umumiy rejasi – bu tekshiruvning asosiy bosqichlari, bosqichlarni bajarish muddatlari, tekshiruv vazifalarini bajaruvchilar va auditorlik nazorati jarayonida qo'llaniladigan metodlar hamda amallar ro'yxati aks ettirilgan auditorlik ish hujjatidir. Mazkur hujjatning namunaviy shakli hamda undan tekshiruvda foydalanish tartibi auditorlik tashkilotining ishchi standartlarida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Ushbu hujjatning auditorlar uchun ahamiyati shundaki, bu hujjatda tekshiruvda qanday masalalar, kimlar tomonidan va qaysi muddatlarda o'rganilishi, qanday usul va amallar asosida o'rganilishini tekshiruv boshlanmasidan avval belgilash hamda o'z muddatida tekshiruv vazifalari bajarilishini nazorat qilish imkonini beradi.

Izlanishlar natijasida bugunga qadar olib borilgan tadqiqotlar va O'zbekiston auditorlik amaliyotida auditni rejalashtirish jarayonlari dastlabki rejalashtirish, umumiy rejani tayyorlash va audit dasturini tayyorlash bosqichlari orqali amalga oshirilayotganligi ma'lum bo'ldi. Biroq, "Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish" nomli 300 son AXS me'yorlariga ko'ra rejalashtirish jarayonlari quyidagi jarayonlardan tashkil topadi (1-rasm).



1-rasm. Xalqaro standartlarga muvofiq auditni rejalashtirish bosqichlari¹

1 Муаллиф томонидан тайёрланган



Yuqoridagi -rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayoni auditning xalqaro standartlarini qo'llash bo'yicha yetarlicha nazariya va amaliyot rivojlangan davlatlarda nazariy jihatdan emas amaliy yondashuvlar asosida audit umumiy strategiyasi, audit rejasi va ularga kiritilgan o'zgarishlar hamda sabablar nomli hujjatlarni qo'llash asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Yuqoridagi hujjatlarni qo'llanilishi audit jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Bizningcha, 300-sonli auditning xalqaro standarti tarkibiga audit umumiy strategiyasi va audit rejasini kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Biz har bir tekshiruv ob'ekti uchun tekshirilayotgan ob'ekt xususiyatlarini inobatga olgan holda, alohida mazmun va shaklda tayyorlashni tavsiya etamiz. Rejalashtirishning "tasdiqlangan auditorlik audit umumiy strategiyasi va audit rejasi bilan tekshiruv buyurtmachisi hamda auditorlik guruhini tanishtirish" nomli yakunlovchi bosqichida tekshirilayotgan korxona rahbariyati, korxonaning hisob ob'ektlari uchun masullar hamda auditorlik ishchi guruhi a'zolariga e'tiboriga etkazilishi zarur. Bu esa tekshiruvni to'g'ri, to'liq va o'z muddatida amalga oshirish imkonini beradi. Tasdiqlangan audit umumiy strategiyasi va audit rejasi auditorlik guruhi a'zolarining har biriga etkazilishi hamda uning talablari mazmuni muhokamadan o'tkazilishi lozim.

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonida auditorlik tashkiloti tomonidan qo'llaniladigan me'yorlar auditorlik standartlari asosida amalga oshirilishi majburiy etib belgilangan bo'lsada, biroq amaliyotda auditorlik tashkilotlari tomonidan amaldagi standartlar talablari yoki unda belgilangan tartib-qoidalarga tekshiruvlar jarayonida to'liq amal qilinmayapti yoki har bir tekshiruvning umumiy rejasi va ish dasturi turlicha yondashuvlar asosida tayyorlanib kelinmoqda. Fikrimizcha, buning asosiy sababi shundaki, amaldagi standartlarda rejalashtirishning bosqichlari mohiyati, ularning o'zaro farqli xususiyatlari va bu ularda auditor tomonidan bajariladigan vazifalar hamda tuziladigan hujjatlar mazmuni to'liq ochib berilmagan. Bu ayniqsa, standartda keltirilgan auditorlik tekshiruvining audit umumiy strategiyasi va audit rejasini namunaviy shakli umumiy va mavhum mazmunda bayon etilganligi sababli tekshiruv jarayonida ulardan foydalanish darajasining qoniqarsizligi hamda standart talablarining sodda va aniq mazmunda bayon qilinmaganligida ko'rinadi. Bu esa bizningcha, auditorlarni mazkur standartning umumiy mazmunda bayon etilgan talablari mazmunini to'liq anglab etmasligi, auditorlik audit umumiy strategiyasi va audit rejasini amalda qo'llay bilmasligi oqibatida ular tomonidan tekshiruvlarni oldindan puxta belgilangan ketma-ketlik asosida o'tkazilmasligi, tekshiruvni auditorlik shartnomasida belgilangan muddatda yakunlanmasligi, auditorning vazifalari oldindan rejalashtirilmaganligi sababli, ular tomonidan yo'l qo'yiladigan xato yoki kamchiliklarni ko'payishiga va tekshiruv jarayonini tartibsiz ravishda amalga oshirilishiga olib keladi.

Fikrimizcha, auditorlik tekshiruvini sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun auditorlik nazorati quyidagi uch bosqich asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- 1.Rejalashtirish bosqichi;
- 2.Tekshirish bosqichi;
- 3.Yakuniy bosqich.

Auditorlik nazoratining yuqorida keltirilgan bosqichlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq auditorlik faoliyatining milliy standartlarida belgilangan majburiy talablarga asosan o'tkazilishi belgilangan. O'z navbatida, auditning yuqoridagi bosqichlarini sifatli va samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun esa uni o'tkazish uslubi-yatini takomillashtirish talab etiladi.

Ma'lumki, hozirgi paytda respublikamiz auditorlik amaliyotida O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun, Prezident Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, xalqaro audit standartlari (AXS) va boshqa auditga oid qonunosti hujjatlari amal qilmoqda, biroq yuqorida ta'kidlanganidek, ularda ham audit o'tkazish bosqichlari hamda ularda bajariladigan auditorlik amallari to'liq va aniq bayon qilinmagan. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunida auditorlik faoliyatini tashkil etish va o'tkazishning umumiy tamoyillari va me'yorlari keltirilgan.

Fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish bosqichlarini to'g'ri va aniq belgilab olish hamda auditor ish sifatini nazorat qilish orqali sifatli auditorlik xizmatini ko'rsatishga erishish mumkin. Buning uchun auditorlik tashkilotidan tekshiruv bosqichlarini aniq va batafsil shakl hamda mazmunda belgilab olish talab etiladi. Xalqaro auditorlik amaliyotida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish tartibi «Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish» nomli 300-son AXS bilan tartibga solinadi. «Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish» nomli 300-son AXSda, auditni rejalashtirish - bu audit rejasini yaratish va tuzish bo'yicha umumiy audit strategiyasini ishlab chiqishdir deb e'tirof etilgan ("Audit planning - is the development of an overall strategy to establish audit and preparation of the audit plan").

Mazkur "Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish" nomli 300-sonli AXSga muvofiq auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirilishi belgilangan:

- Kirish;
- Auditni rejalashtirish;
- Audit strategiyasi.

Mazkur “Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish” nomli 300-son AXSda belgilangan tartiblar “Mustaqil auditorning asosiy maqsadlari va xalqaro audit standartlariga muvofiq audit o‘tkazish” nomli 200-son AXSda belgilangan tartib-taomillar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim.

Ta’kidlash joizki, AXSning asosiy amaliy ustunliklaridan biri bu - AXS matniga kiritilgan o‘zaro bog‘liq havola(snoska)lar yoki ularda auditorga audit jarayonida u yoki bu standartni qo‘llash ketma-ketligini belgilashga imkon beradigan “havola”larning mavjudligidir. Amaldagi auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarda esa, bunday o‘zaro bog‘liq tomonlarni ifodalovchi havolalar qabul qilinmaganligi sababli ular mavjud emas. Quyidagi 2-jadvalda auditni rejalashtirish jarayonida 300-son “Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish” nomli AXSdan tashqari yana qaysi xalqaro standartlar talablari va tavsiyalari bajarilishi ko‘rsatilgan. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda o‘zaro bog‘liq tomonlarni ifodalovchi havolalardan foydalanish auditorlarga auditni yanada samaraliroq va sifatliroq amalga oshirishga imkon beradi. Bunda, auditorning audit o‘tkazilayotgan shaxs xo‘jalik faoliyati risklarini tushunishi hisobotda axborotni jiddiy ravishda buzib ko‘rsatish risklarini aniqlash ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

2-jadval. 300-son AXSga o‘zaro bog‘liq tomonlarni ifodalovchi havolalar²

№	300-son AXSda belgilangan taomillar	O‘zaro bog‘liq tomonlarni ifodalovchi havolalar aks ettirilgan standartlar
1 I.	Auditorlik guruhining asosiy a‘zolari ishtiroki	315 AXS. «Tashkilot va uning muhitini o‘rganish vositasida jiddiy buzib ko‘rsatishlar risklarini aniqlash va baholash»
		240 AXS. «Moliyaviy hisobot auditida firibgarlikka nisbatan auditorning majburiyatlari»
2 II.	Topshiriq bo‘yicha dastlabki ishlar	220 AXS. «Moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishda sifat nazorati»
		210 AXS. «Auditorlik topshiriqlari shartlarini muvofiqlashtirish»
3 III. IV.	Rejalashtirish bo‘yicha ishlar	315 AXS. «Tashkilot va uning muhitini o‘rganish vositasida jiddiy buzib ko‘rsatishlar risklarini aniqlash va baholash»
		330 AXS. «Baholangan risklarga javoban auditorlik tartib-taomillari»
		220 AXS. «Moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishda sifat nazorati»
4	Boshqarish va nazorat bo‘yicha qo‘shimcha tavsiyalar	230 AXS. «Auditorlik hujjatlari»
5	Birinchi bor bajarilayotgan auditorlik topshiriqlariga nisbatan qo‘shimcha fikr-mulohazalar	220 AXS. «Moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishda sifat nazorati»

Quyidagi 3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, yuqorida nomi keltirilgan 300-son AXSda standartni qo‘llash sohasi aks ettirilgan bo‘lib, bu erda ushbu standart takroriy audit topshiriqlariga mansubligi ko‘rsatilgan, bundan tashqari birinchi marta bajarilayotgan auditorlik topshiriqlariga aloqador qo‘shimcha izohlar alohida taqdim etilgan. Shuningdek, standartda qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma va boshqa izohlovchi materiallar taqdim etilib, umumiy audit strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha fikr-mulohazalar taqdim etilgan.

3-jadval. 300-son “Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish” nomli AXS tarkibiy qismlari³

Standart bo‘limlari nomi	Bo‘limlar tarkibining mazmuni
Kirish	Qo‘llanish sohasi
	Rejalashtirish muddati va roli
	Kuchga kirgan sana
Maqsad va vazifalar	
Talablar	Auditorlik jamoasi asosiy a‘zolarini jalb qilish
	Topshiriq bo‘yicha dastlabki ishlar
	Rejalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar
	Hujjatlar
	Dastlabki auditorlik topshirig‘i bo‘yicha qo‘shimcha tavsiyalar

² Muallif tomonidan tayёрlangan

³ Muallif tomonidan tayёрlangan



Amaliy qo'llanishi va boshqa izohlovchi materiallar	Rejalashtirish muddati va roli
	Auditorlik jamoasi asosiy a'zolarini jalb qilish
	Topshiriq bo'yicha tayyorgarlik chora-tadbirlari
	Rejalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar
	Hujjatlar
	Dastlabki auditorlik topshirig'i bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar
Ilova: umumiy audit strategiyasini belgilash bo'yicha tavsiyalar	Topshiriq ko'rsatkichlari
	Hisobot maqsadlari, audit muddati va axborot o'zaro aloqalari xarakteri
	Muhim dalillar, topshiriq bo'yicha tayyorgarlik chora-tadbirlari va boshqa topshiriqlarni bajarish davomida olingan axborotlar
	Resurslar hajmi, muddati va xarakteri
Audit davomida rejalashtirish bo'yicha qarorlarga o'zgartirishlar kiritish	
Rahbarlik, nazorat va sinov tariqasidagi tekshiruv	

Ko'rinadiki, mahalliy hujjat ramkali sanaladi, xalqaro hujjat esa ularning talablari u yoki bu holatda bajarilishi kerak bo'lgan boshqa standartlarning muayyan bandlari bilan bog'liq bo'lgan ketma-ketlikdagi harakatlarni va ko'plab nozik jihatlarni tavsiflaydigan aniq va batafsil yo'riqnomadan iborat. Shuningdek, «Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish» nomli 300-son AXS auditorlik riskini maqbul keladigan past darajagacha tushirish maqsadida auditorlik tekshiruvi ko'lami, muddati va xarakteriga mufassal yondashuv va umumiy strategiya ishlab chiqishni talab qiladi.

«Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish» nomli 300-son AXSga muvofiq audit strategiyasi qabul qilingach, mukammal reja shaklida taktika ishlab chiqiladi. Mazkur 300-son AXS talablariga muvofiq audit rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi lozim:

- ✓ biznesni tushunish bunda, tekshirilayotgan mijoz biznesiga ta'sir etadigan tarmoq holati va unga ta'sir etuvchi omillar, sub'ektning muhim tavsiflari, uning biznesi, moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari va uning hisobotiga talablar, jumladan, auditdan oldingi sanadan ro'y bergan o'zgarishlar, rahbariyat vakolatlari umumiy darajasini aks ettirish;

- ✓ ichki nazorat tizimini baholash bunda, hisob siyosati va undagi o'zgarishlar, buxgalteriya hisobi yoki auditning yangi me'yorlari ta'siri, korxona xodimlarining bilimi va malaka darajasi mohiyatan tekshirish bo'yicha tartib-taomillar va nazorat testlariga muvofiq aniqlash;

- ✓ auditorlik riski va muhimlik darajasini baholash, bunda auditorlik risklarini baholash, tekshiruvning muhim yo'nalishlarini belgilab olish, muhimlik darajalarini belgilash, moliyaviy hisobotga ta'sir etuvchi jiddiy buzilishlar darajasi, axborot texnologiyalarining auditga ta'siri va ichki nazorat tizimining ta'sirini aniqlash;

- ✓ tekshiruv o'tkazish tartibi, muddati va hajmi, mijoz-korxona bo'limlari faoliyatini o'rganish;

- ✓ ishlarni muvofiqlashtirish, yo'naltirish, kuzatish, tahlil qilish va ekspertlarni jalb qilish;

- ✓ boshqa masalalar. Masalan qo'shimcha mutaxassisga ehtiyoj va h.k.

Amaldagi AXSlarga muvofiq auditorlik tekshiruvi quyidagi uch asosiy bosqichda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan:

1. Auditni rejalashtirish bosqichi.

2. Auditorlik dalillarni to'plash bosqichi.

3. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish bosqichi.

Rejalashtirish bosqichidan oldin auditor mijoz bilan tanishib chiqishi lozim. Mijoz haqida dastlabki axborot to'plash jarayoni ishchi jadvallar asosida amalga oshirilib, ularga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- ✓ mijoz faoliyatining mintaqaviy va tarmoq xususiyatlari;

- ✓ mijozning moliyaviy holati;

- ✓ mijoz faoliyatining tashkiliy va texnologik xususiyatlari;

- ✓ moliyaviy hisobotga mas'ul xodimlar malakaviy darajasi haqida axborot;

- ✓ mijoz-korxona hisob jarayonlarini avtomatlashtirish darajasi;

- ✓ qimmatli qog'ozlar bozorida mijoz faoliyatining darajasi;

- ✓ ichki nazorat tizimini tashkil qilish;

- ✓ mijozning moliyaviy majburiyatlari haqida axborot;

- ✓ mijoz ishtirok etadigan sud ishlari materiallari.



Ushbu axborot audit ish hajmi, ehtimoliy risklarni va mos ravishda auditorlik tekshiruvi qiymatini aniqlash uchun zarur. Shundan keyin auditor "Auditorlik topshiriqlari shartlarini muvofiqlashtirish" nomli 210-son AXSga muvofiq auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomani tuzish to'g'risida xat jo'natadi. Yakuniy hisobda auditor va audit o'tkaziladigan kompaniya rahbariyati audit o'tkazish shartlari borasida ma'lum bir kelishuvlarga erishishi lozim. Kelishib olingan shartlar auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada aks ettiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditni mustaqil fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida Respublikamizda amal qilayotgan bo'lsada, mazkur fanning predmeti, fanning ob'ektlari, auditorlik tekshiruvini dastlabki rejalashtirish, auditning umumiy strategiyasi va audit rejasining iqtisodiy mohiyati to'liq va aniq ochib berilmaganligi bois mazkur tushunchalar mazmunini aniqlashtirish lozim.

Bizningcha, audit bosqichlariga tegishli har bir vazifani bajarish uchun ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng avvalo, tekshiruv "algoritm"ini yaratish, auditorlik amallarini bajarish va tekshiruv natijalarini umumlashtirish hamda baholashning ilmiy, uslubiy va me'yoriy jihatdan asoslangan uslubiyatini ishlab chiqish zarur. Buning uchun auditorlik tekshiruvi bosqichlarida bajariladigan vazifalarni amalga oshirishning ilmiy, uslubiy va me'yoriy jihatdan asoslanganligi tahlil etish, tahlil natijalariga ko'ra aniqlangan uslubiy muammolar mazmunini o'rganish va tahlil etish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishning uslubiy va normativ-huquqiy muammolarini tadqiq etish dolzarb sanaladi. Bunda «Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish» nomli 300-son xalqaro audit standartga auditni dastlabki rejalashtirish, auditning umumiy strategiyasi va audit rejasining takomillashgan namunaviy shakllarini kiritish lozim.

Izlanishlar natijasida amaldagi auditorlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va o'tkazilgan tadqiqotlarda tekshiruv oralig'ida tuziladigan ish hujjatlarining mazmuni, shakli va ularni rasmiylashtirish tartibi aniq belgilanmaganligi aniqlandi. Bizningcha, mazkur jarayonlarni takomillashtirish maqsadida tekshiruv oralig'ida tuziladigan namunaviy ish hujjatlari shaklini 230-son "Auditorlik hujjatlari" nomli xalqaro audit standartiga kiritish maqsadga muvofiq. Bu esa, auditning har bir ob'ekti bo'yicha tekshiruv natijalarini o'z muddatida va to'liq hajmda umumlashtirish, tahlil etish va ishonchli auditorlik xulosasini shakllantirish tezligini oshirish imkonini beradi.

Fikrimizcha yuqoridagi taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etilishi Respublikamiz auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Аренс, Дж.Лоббек. Аудит. -М.: Финансы и статистика, 2001, 300 стр.
2. N.Sanaev, R.Narziev. Audit. T: "Sharq", 2002 yil, 64-bet.
3. I.Qo'ziev. Tijorat banklarida auditorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish. "Biznes-ekspert" jurnali 2019 yil 3-son 135-bet.
4. В.П.Суйц, А.Д.Шеремет. Аудит. Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2005. 129 стр.
5. Meliev I.I. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish uslubiyati: muammo va echimlar: Monografiya-T.: "ВНЕШИНВЕСТПРОМ", 2020. - 191 b.
6. Meliev I.I. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishni takomillashtirish. iqtisod fan. dok. (PhD) diss. avtoreferati. Toshkent: TMI, 2020 63 b
7. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot. Monografiya. -T.: Moliya, 2007. -276 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100